

Mingaliyev R.O.

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti
Tabiiy geografiya kafedrası tayanch doktoranti

UZUN TUMANIDA SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uzun tumanidagi suv resurslarining hosil boʻlishi, taqsimlanishi va ulardan oqilona foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: suv resurslari, suv resurslarining taqsimlanishi, yillik yogʻin miqdori, daryo terrasalari, nasos stansiyalari.

Мингалиев Р.О.

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Докторант кафедры естественной географии

РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ

УЗУНСКОГО РАЙОНА

Аннотация: В данной статье освещены вопросы формирования, распределения и рационального использования водных ресурсов Узунского района.

Ключевые слова: водные ресурсы, распределение водных ресурсов, годовые осадки, речные террасы, насосные станции.

Mingaliyev R.O.

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Doctoral student of the Department of Natural Geography


RATIONAL USE OF WATER RESOURCES IN UZUN DISTRICT

Abstract: This article covers the issues of formation, distribution and rational use of water resources in Uzun district.

Key words: water resources, distribution of water resources, annual precipitation, river terraces, pumping stations.

Sayyoramizda jadallik bilan sodir boʻlayotgan global iqlim oʻzgarishi jarayoni, shu bilan birgalikda aholi soni va iqtisodiyot tarmoqlarining oʻsishi suvga boʻlgan talabni tobora oshirmoqda. Yogʻingarchilik yil fasllari va hududlar boʻyicha notekis taqsimlangan arid iqlimda joylashgan Oʻzbekistonda ham suv resurslariga talab juda yuqori.

Uzun tumani suv resurslarining taqsimlanishi birinchi navbatda iqlimga va relyefga bog'liq. Tuman hududining katta qismi Bobotog' va uning tog' oldi hududlariga to'g'ri keladi. Bobotog'ning tuman hududdidagi g'arbiy yonbag'irlari uzun va sekin-asta pasayib borib Surxondaryoga tutashib ketadi. Bobotog'ning sharqiy yonbag'irlari qisqa va nishablik yuqori, Kofirnihon daryosiga tutashadi, shu bilan birgalikda Shimoldan janubga borgan sari relyef nishabligi pasayib borib, Qumqurg'on tekisliklariga tutashib ketadi. Tuman hududining 2/3 qismi Bobotog' va tog' oldi hududlarga to'g'ri keladi. Hududning qolgan qismi Surxondaryo va Kofirnihon daryolarining terrasalarida joylashgan.



a) Uzun tumanining relyefi, b) Uzun tumanida o'rtacha yillik yog'in miqdori

Uzun tumanida yog'in miqdori tekislikdan tog'ga tomon ortib boradi(1-rasm). Nam havo massalari tog'larga ro'paro bo'lib, yog'ingarchilikka sabab

bo'ladi. Yog'inlarning oylar bo'yicha notekis taqsimlanganligi uchun qish, bahor fasllarida Bobotog'dan boshlanadigan ko'plab soylar yoz va kuzda qurib qoladi.

Natijada suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib boryapti. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil va keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, suv manbalari O'zbekistondagi ko'plab ekotizimlar, jumladan, daryolar, ko'llar va suv omborlari uchun muhim ahamiyatga ega. Suv resurslariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va ularni boshqarish biologik xilma-xillikni saqlashga, suv sifatini yaxshilashga olib keladi va ekoturizmni saqlash va rivojlantirish imkonini beradi.


Xayotni suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi, shuning uchun suv tabiatda eng qimmat tabiiy resurs hisoblanadi. Tabiat hosilasi bo'lgan suv qishloq xo'jalik ekinlari, sanoat korxonasi va insonlar uchun eng muhim boylikdir. Suv modda va energiyaning tabiatda aylanishida va o'simliklarning fotosentiz jarayonida ham suv faol qatnashadi. Tirik organizmlarni ko'p qismini suv tashkil qilib, shuningdek ularni o'sish va rivojlanishida asos vazifasini o'taydi. Tirik organizmlarda suv almashuvini buzilishi bajarayotgan turli funksiyalarini o'zgarishiga sabab bo'ladi (Shodimetov 1994).

Tumanning asosiy suv resurslar manbai daryolar, soylar, kanallar, yer osti suvlari hisoblanib, ular qishloq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlanishida hamda aholining ichimlik suvi bilan taminlashda katta ahamiyatga egadir.

Tuman hududidan To'polondaryo, Obizarang, Qoratog', Qorasuv, Surxon daryolari oqib o'tadi. Uzun tumani hududida jami kanallar soni 9 ta bo'lib, ularning uzunligi 98,2 km ni tashkil etadi. Kanallarning asosiy qismi Qoratog',

Surxon va Kofirnihon daryolaridan suv oladi. Aholi va xo‘jaliklar ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlashda shu daryo va kanallardan foydalaniladi.

UZUN TUMANINING GIDROGRAFIK TO'RI



2-rasm. Uzun tumanining gidrografik to'ri.

Tuman ekin yerlarini sug'orishda daryolar, kanallar hamda kanallardagi nasoslar sug'oriladiga yerlarni suv bilan taminlaydi. Sug'oriladigan yerlarni sug'orishda asosiy daryolarga Qoratog', To'polon, Surxondaryo va Kofirnihon daryolari kiradi. Kanallardan Astan, Astan-1, Astan-2, Fayzova, MP-1, Goros, Xatib kanallari hisoblanadi. Surxondaryoning qayir usti I terrasasidagi sug'oriladigan yerlar daryolarning o'zidan suv oladi. Surxondaryoning qayir usti II, III terrasalaridagi sug'oriladigan yerlar kanal va nasos stansiyalaridan suv oladi. Kanallarning asosiysi qayir usti II, III terrasalar oraligida joylashgan. Kanallar insonlarning qo'l mehnati asosida qazilgan, Surxondaryoning qayir usti II, III

terrassalar chegarasida tog‘ jinslari yumshoq hisoblanadi, shuning uchun asosiy kanallar II, III terrassalar oralig‘ida joylashgan, hamda daryo oqimi tomon nishablik bo‘ladi. Kanallar ichida Astan kanali muhim hisoblanadi. Astan kanali Qoratog‘ daryosidan to‘g‘onsiz suv oladi.



3-rasm. Qoratog‘ daryosidan to‘g‘onsiz suv oluvchi Astan kanali

1974- yil Uzun tumani “ Vodhoz ” bo‘limiga foydalanishga topshirilgan, kanalning vazifasi Aston-1, va Aston-2 kanallariga suv etkazib Serharakat hududining 3606 gektar ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlaydi.

Uzun tumanidagi ekin maydonlar 15094 gektarni tashkil etib, sug‘oriladigan yerlar maydoni 10808 gektarni tashkil etadi. Hozirgi kunda iqlim issiq va quruq kelishi insonlar va qishloq xo‘jaligida suvga bo‘lgan ehtiyocho ortib bormoqda. So‘ngi 3-4 yil ichida daryolar suv sathining kamyishi va insonlarni suvga bo‘lgan ehtiyojining o‘ssishi yaqqol namayon bo‘lmoqda. Sug‘oriladigan ekin maydonlar va tomorqa yerlariga suvdan foydalanish uchun qishloq xo‘jalik vazirligi tomonidan viloyatlar va tuman kesimida bir yildan qancha suvdan foydalanish bo‘yicha limit ajratilib quyidagi jadvalda keltirilgan.

Surxondaryoning qayir usti III terraslardagi sugʻoriladigan ekin maydonlarga nasos stansiyalari orqali suv chiqarilib ekin dalalari sugʻoriladi, Surxondaryoning qayir usti III terrasada ekin ekiladigan yerlar katta qismini tashkil etadi.

1-jadval.

Uzun tumaniga 2021- yil oylar kesimida ajratilgan suv limitidan foydalanishi

T/R	Oylar nomi	Oylar boʻyicha suv miqdori, mln m ³ da		
		Belgilangan meʼyor	Amalda suv resurslaridan foydalanish miqdori	Belgilangan meʼyor va suvdan amalda foydalanish oʻrtasidagi farq
1	Yanvar	00	1,55	-1,55
2	Fevral	11	11,9	-0,9
3	Mart	25,1	3,68	21,42
4	Aprel	15	14,5	0,5
5	May	16	24,72	-8,72
6	Iyun	24,30	29,55	-5,25
7	Iyul	30,50	30,21	0,29
8	Avgust	16,80	24,28	-7,48
9	Sentyabr	9,80	18,57	-8,77
10	Oktyabr	9,8	16,97	-7,17
11	Noyabr	9,6	15,99	-6,39
12	Dekabr	00	9,63	-9,63
	Jami	168	201,5	-33,5

Bu yerlarga paxta va gʻalla ekinlari almashlab ekiladi. Paxta 1 gektariga 18-20 sentner beradi. Paxta ekinlari yoz oylarida suv tanqisligidan hosil darajasi pasayadi. Bu hududlarga gʻalla ekinlarini ekish va suvni kam talab qiladigan ekinlar yoki koʻp yillik ekinlar misol uchun beda oʻsimligi ekilsa maqsadga muvofiq boʻladi, asosan tipik boʻz tuproqlar hosil boʻlgan boʻz tuproqlarning ona jinsini, lyoss va lyossimon jinslar tashkil etadi. Lyoss va lyossimon jinslar tarqalgan hududlarda, eroziya va jarlanish jarayoni tezlashadi. Surxondaryoning qayir usti III terrasasida joylashgan Xalqobod, Qoʻshqoq, Yuqori namuna, Yangi sharq qishloqlaridagi paxta ekin dalalari atrofida jarlanish jarayonini koʻrish mumkin.

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasi ham har qachongidan dolzarb bo'lib, bu borada muayyan chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilyapti.

2-jadval

Uzun tumanidagi suv chiqaradigan asosiy nasos stansiyalari

№	Nasoslar nomi	Yer maydoni (ga)
1	Cherishli	175
2	Jonchekka1-2	300
3	Dazara-2	189
4	Dazara-3	98
5	Qarg'ali	287
6	Otchopar-1-2-3	202
7	Astana-1	413
8	Astana-2	1220
9	J.Pirnazarov	167
10	Serharakat-1-2	347
11	Malik	84
12	Oq tumshuq	98
13	Jonchekka	675
14	Yer osti quduqlari	290
	Jami	4545,0

Xulosa qilib aytganda, Uzun tumanida suv resurslari uch xil maqsadda: 1) Aholi uchun toza ichimlik suvi maqsadida; 2) Ishlab chiqarish korxonalari ta'minotida; 3) Qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orishda foydalaniladi. Mazkur sohalarning hammasi muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

“Xo'jalik uchun yetarli bo'lgan suv resurslari qanday shakllanadi?” degan savol tug'iladi. Daryolarda to'planadigan suvlar, tabiiy yog'ingarchilik, yer osti suvlari — bizning suv manbalarimizdir. Demak, o'z-o'zidan asosiy maqsad ana shu manbalarni to'liq nazoratga olish, ulardan ishlab chiqarilayotgan toza suv miqdorini ko'paytirish, eng muhimi, suv iste'molida yuzaga kelgan tartibsizlik va isrofnii yo'q qilish lozimdir.

Umuman olganda, suvni tejash iqlim o'zgarishiga moslashish va ichimlik suvining kamayishi, yong'in va qurg'oqchilik xavfining oshishi kabi salbiy ta'sirni yumshatishda muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. –T.: O‘qituvchi, 1997. -112 b.
2. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. Geoekologiya. Toshkent, 2014, -101 b.
3. Ro‘ziyev A.N. Surxon-Sherobod vodiysida qishloq xo‘jaligini joylashtirish va rivojlantirish masalalari.
4. Tўraev Б. Ҳозирги замон табиатшунослиги концепциялари. –Т.:Tafakkur, 2009. -250 b.
5. Uzun tumani “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi” fond materiallari(2019-2021 yillar).
6. Uzun tumani “ Yer resurslari va davlat kadastr bo‘limi” hisoboti (2021-y.).